

Odam savdosi - davr muammosi

“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti talabalari o‘rtasida turli yot g‘oyalar va tahdidlarga qarshi kurashish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida 2018 yil 14 dekabrda 8-zalda “Odam savdosi - davr muammosi” mavzucida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda IIV odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasi a‘zosi Axmedov Axrorbek O‘ktamovich, IIV terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi katta tezkor vakili Djo‘rayev Jo‘rabek Yuldoshevich, Fakultet dekan A.Isaqov, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Berdiyev va 10 nafar professor-o‘qituvchi hamda 250 nafar talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Tadbir so‘ngida “Odam savdosi - davr muammosi” mavzusiga oid bo‘lgan videoroliklar namoyish etildi. Tadbir yakunida ma‘ruzachilar tomonidan ishtirok etgan barcha talabalarning savollariga batafsil javoblar berildi.



**“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti Ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha
dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov